20	Berilgan <b>char</b> turidagi to‘plamning kata harfdan iborat elementlarini kichik harfga o‘girib, 2- to‘plamni va kichik harfdan iborat elementlarini katta harfga o‘girib, 3- to‘plamni hosil qiluvchi hamda ularni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
21	Berilgan <b>char</b> turidagi to‘plamning elementlarini ASCII kodlaridan 2- to‘plamni va element so‘zlarining teskasidan(masalan: Oybek - kebyO) o‘girib, 3- to‘plamni hosil qiluvchi hamda ularni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

## 2.2.2. map va multimap sinflaridan foydalanib, amaliy dasturlar yaratish

**Ishning maqsadi:** C++ dasturlash tilida **map** va **multimap** sinflari va uning metodlaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallsh.

### Masalaning qo‘yilishi:

**map** va **multimap** asosida yaratilgan to‘plam elementlarini **map** va **multimap** ning maxsus funksiyalari yordamida qayta ishlash.

### Masala:

Talabalar haqida (familiya, ismi va stipendiyasi) **string** va **float** turidagi to‘plam berilgan. Familiyasi yoki ismi to‘liq yozilganlar va stipendiyasi N ga teng bo‘lganlaridan 2- to‘plamni hosil qiluvchi va ularni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

### Masalani yechish g‘oyasi:

**map** konteyneri to‘plami yaratiladi. **map** ning **insert(pair<char,int>('a',10))** iteratoridan foydalanib, A to‘plamga qiymatlar o‘zlashtiriladi.

### Dastur matni:

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <map>
3. #include<iostream>
4. #include<string>
5. using namespace System;
6. using namespace std;
7. int main()
8. {    map<string, int> s; int n;
9. cout<<"Talabalar sonini kirititing: "; cin>>n;
    cin.ignore();
10.    multimap<string,int> M, M2;
11.    for (int i = 0; i < n; i++)
12.    {
13.        string St;
14.        int step;
15.        cout<<i+1<<" - talaba ma'lumotlarini
            kirititing:"<<endl;
```

```

16.     cout<<"Fam, ismi: "; getline(cin,St);
17.     cout<<"Stipendiyasi: "; cin>>step; cin.ignore();
18.     s.insert(pair<string, int>(St,step));
19.     M.insert(pair<string, int>(St,step));
20. }
21. string S;
22. int N;
23. cout<<"Qanday stipendiya oladigan talaba haqida
ma'lumot kerak?: ";
24. cin>>N;
25. int k=0;
26. for (auto it = M.begin(); it != M.end(); ++it){
27.     S = it->first;
28.     if(S.find(" ")<S.length() && it->second == N){
29.         M2.insert(pair<string, int>(S,N));
30.         cout<<"bor"<<endl;}
31.     }
32.     cout<<"So'rov Natijasi:"<<endl;
33.     for (auto it = M2.begin(); it != M2.end(); ++it){
34.         cout<<it->first<<" "<<it->second<<endl;
35.     }
36.     getchar(); getchar();
37.     return 0;

```

### Dastur natijasi:

Talabalar sonini kriting: 3

Fam, ismi: ABdurahmonov

1 - talaba ma'lumotlarini kriting:

Stipendiyasi: 300000

Fam, ismi: Mallayev Oybek

Qanday stipendiya oladigan talaba

Stipendiyasi: 400000

haqida ma'lumot kerak?: 400000

2 - talaba ma'lumotlarini kriting:

bor

Fam, ismi: Ishniyazov Odil

So'rov Natijasi:

Stipendiyasi: 500000

Mallayev Oybek 400000

3 - talaba ma'lumotlarini kriting:

## **Laboratoriya mashg‘ulotini bajarish bo‘yicha variantlar**

Quyida berilgan vazifalarda kiruvchi qiymatlar matinli fayldan o‘zlashtirilishi kerak.

### **4- jadval**

1	Talabalar haqida (familiya, ismi, sharfi va telefon) to‘plam berilgan. FIO si to‘liq yozilganlar va telefoni T ga teng bo‘lganlardan 2- to‘plamni hosil qiluvchi va ularni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
2	Talabalar haqida (familiya, ismi, sharfi, gruhi va bahosi) to‘plam berilgan. Bahosi 5 bo‘lganlardan 2- to‘plamni, bahosi 4 bo‘lganlardan 3- to‘plamni, bahosi 3 bo‘lganlardan 4- to‘plamni va fanni o‘zlashtira olmaganlardan 5- to‘plamni hosil qiluvchi va 5 ta to‘plamni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
3	Talabalar haqida (familiya, ismi, sharfi, viloyat, tuman va qishloq) to‘plam berilgan. Har bir viloyatda nechta talaba borligini aniqlovchi va viloya, tuman bo‘yich talabalarni qidiruvchi dastur tuzing.
4	Talabalar haqida (familiya, ismi, sharfi, fani, guruhi va bahosi) to‘plam berilgan. Ixtiyoriy qidirilayotgan guruhda har bir fandan nechta talaba 5 bahoga, nechiasi 4 bahoga, nechiasi 3 bahoga va nechiasi o‘zlashtira olamayotganligi aniqlovchi va bahosi bo‘yich talabalarni qidiruvchi dastur tuzing.
5	Kompyuterlar haqida (nomi, firmasi, xotirasi, yadrovi, yili va yadrovi) to‘plam berilgan. Kompyuterlarni yadrovi va firmasi bo‘yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
6	Kompyuter viruslari haqida (nomi, zarar darajasi, tarqalish tezligi, turi, va internet_id) to‘plam berilgan. Kompyuter viruslarini nomi va tarqalish tezligi bo‘yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
7	Kafedralar haqida (nomi, mudir_FIO, xodimlar soni, fanlar soni va professorlar soni) to‘plam berilgan. Kafedralarni nomi, mudir_FIO, fanlari soni va professorlar soni bo‘yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
8	Universitetlar haqida (nomi, rektor_FIO, xodimlar soni, fanlar soni, talabalar soni va professorlar soni) to‘plam berilgan. Universitetlarni nomi, rektor_FIO, xodimlar soni, fanlar soni, talabalar soni va professorlar soni bo‘yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
9	TTJ lar haqida (nomi, xokim_FIO, xonalar soni, talabalar soni, qizlar va bollar soni hamda nogironlar soni, nomeri) to‘plam berilgan. TTJ ni nomi, xokim FIO, xonalar soni, talabalar soni, qizlar va bollar soni hamda

	nogironlar soni, nomeri bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
10	Maktablar lar haqida (nomi, direktor_FIO, xodimlar va o'qituvchilar soni, qizlar va bollar soni, olinpiada g'oliblari soni hamda maktab nomeri) to'plam berilgan. Maktablarni nomi, direktor_FIO, xodimlar va o'qituvchilar soni, qizlar va bollar soni, olinpiada g'oliblari soni hamda maktab nomeri bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
11	Fanalar haqida (nomi, o'qituvchi_FIO, 5 chilar soni, 4 chilar soni, 3 chilar soni va o'zlashtira olmaganlar soni) to'plam berilgan. Fanlarni nomi, o'qituvchi_FIO, 5 chilar soni, 4 chilar soni, 3 chilar soni va o'zlashtira olmaganlar soni bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
12	Operatsion tizimlar haqida (nomi, yili, razryadlar soni, turi va imkoniyatlarining soni) to'plam berilgan. Opetarsion tizimlarni nomi, yili, razryadlar soni, turi va imkoniyatlarining soni bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
13	Avtomobillar haqida (nomi, yili, versiyasi va narxi) to'plam berilgan. Avtomobilarni nomi, yili, versiyasi va narxi bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
14	Ho'l mavalar haqida (nomi, mazasi, rangi, turi va narxi) to'plam berilgan. Ho'l mevalarni nomi, mazasi, rangi, turi va narxi bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
15	Korxona xodimlari haqida (FIO, yili, staji, lavozimi va oyligi) to'plam berilgan. Xodimlarning familiyasi bir xillardan 2- to'plamni, ismi bir xillardan 3- to'plamni, staji bir xillardan 4- to'plamni va oyligi bir xillardan 5- to'plamni tashkil qiluvchi hamda xodimni FIO, yili, staji, lavozimi va oyligi bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
16	Mashxur futbolchilar haqida (FIO, kuboklar soni, staji, mashxurlik darajasi va oyligi) to'plam berilgan. Futbolchilarning familiyasi bir xillardan 2- to'plamni, ismi bir xillardan 3- to'plamni, staji bir xillardan 4- to'plamni va oyligi bir xillardan 5- to'plamni tashkil qiluvchi hamda futbolchini FIO, kuboklar soni, staji, mashxurlik darajasi va oyligi bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
17	Kompyuter o'yinlari haqida (nomi, turi, versiyasi, hajmi, zararli oqibatlari, foydalilik darajasi va aktuallik darajasi) to'plam berilgan. Kompyuter o'yinlarining nomi bir xillardan 2- to'plamni, zararli oqibatlari bir xillaridan 3- to'plamni, aktuallaik darajasi bir xillaridan 4- to'plamni tashkil qiluvchi hamda Kompyuter o'yinini nomi, turi, versiyasi, hajmi,

	zararli oqibatlari, foydalilik darajasi va aktuallik darajasi bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
18	Mobil telefonlar haqida (nomi, turi, versiyasi, hajmi, foydalilik darajasi, yadrovi, kamera o'lchami) to'plam berilgan. Mobil telefonlarning nomi bir xillardan 2- to'plamni, turi bir xillaridan 3- to'plamni, yadrovi bir xillaridan 4- to'plamni tashkil qiluvchi hamda Mobil telefonni nomi, turi, versiyasi, hajmi, foydalilik darajasi, yadrovi, kamera o'lchami bo'yicha qidiruvchi hamda topilgan natijani faylga saqlashni taklif qiladigan dastur tuzing.
19	Sinf xonalar haqida (nomeri, qavati, Javobgar shaxs_FIO, stollar soni, stellar soni, dars bo'lish vaqtleri va kompyuterlar soni) to'plam berilgan. Sinf xonalarning nomeri va qavati bir xillaridan 2- to'plamni, Javobgar shaxs_FIO si bir xillaridan 3- to'plamni, stollar soni bir xillaridan 4- to'plamni, stollar soni bir xillaridan 5- to'plamni, kompyuter soni bir xillaridan 6- to'plamni tashkil qiluvchi hamda ixtiyoriy sana va vaqtida bo'sh bo'lgan xonalarni aniqlovchi dastur tuzing. Topilgan natijani faylga saqlashni tashkil qilsin.
20	O'qituvchilar haqida (FIO, qabul qilish vaqt, fan nomi, lavozimi va fanlar soni) to'plam berilgan. O'qituvchilarning familiyasi va ismi bir xillaridan 2- to'plamni, qabul qilish vaqt, bir xillaridan 3- to'plamni, lavozimi bir xillaridan 4- to'plamni, fanlar soni bir xillaridan 5- to'plamni tashkil qiluvchi hamda ixtiyoriy sana va vaqtida nechta va qaysi o'qituvchilar talabalarni qabul qilishi mumkinligini aniqlovchi dastur tuzing. Topilgan natijani faylga saqlashni tashkil qilsin.
21	Kitoblar haqida (nomi, avtor_FIO, yili, yo'nalishi, sahifalar soni va foydalanilganlik soni) to'plam berilgan. Kitoblarning avtor_FIO si bir xillaridan 2- to'plamni, yili bir xillaridan 3- to'plamni, yo'nalishi bir xillaridan 4- to'plamni, sahifalar soni bir xillaridan 5- to'plamni tashkil qiluvchi hamda eng ko'p va eng kam o'qilgan kitoblarni va ularning sonini aniqlovchi dastur tuzing. Topilgan natijani faylga saqlashni tashkil qilsin.
22	Arxiv fayllari haqida (nomi, turi, javobgar_FIO, yili, o'zgartirilgan sanasi, saqlash muddati) to'plam berilgan. Arxiv fayllarning javobgar_FIO si bir xillaridan 2- to'plamni, yili bir xillaridan 3- to'plamni, o'zgartirilgan sanasi bir xillaridan 4- to'plamni, saqlash muddati bir xillaridan 5- to'plamni tashkil qiluvchi hamda saqlash muddati tugagan fayllarni va ularning sonini aniqlovchi dastur tuzing. Topilgan natijani faylga saqlashni tashkil qilsin.

## 2.3. stack, queue, priority\_queue konteyner adapterlari

### 2.3.1. stack sinflaridan foydalanib, amaliy dasturlar yaratish

**Ishning maqsadi:** C++ dasturlash tilida **stack** sinflari va uning metodlaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallish.

#### Masalaning qo‘yilishi:

**stack** asosida yaratilgan to‘plam elementlarini **push()**, **top()**, **pop()** va **empty()** iteratorlar yordamida qayta ishlash.

#### Masala:

Savatga hajmi har xil (bir xillari ham bor) tuxumlar solingan. Ushbu tuxumlardan bir xil hajimli tuxumlar sonini aniqlovchi va ulardan bittasini qoldirish va qolganlarini o‘chirish dasturini tuzing.

#### Masalani yechish g‘oyasi:

**stack** konteyneri to‘plami yaratiladi. **Stack** ning **push()** iteratoridan va **set** ning **insert(<int>(a))** iteratoridan foydalanib, Stak to‘plamga qiymatlar o‘zlashtiriladi. Ichma ich sikl jarayonidan bir xil hajimli tuxumlar soni aniqlanadi.

#### Dastur matni:

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <stack>
3. #include <set>
4. #include<iostream>
5. #include<string>
6. #include<stdlib.h>
7. #include<time.h>
8. using namespace System;
9. using namespace std;
10. int main()
11. {
12.     srand(time(NULL));
13.     int n; cout<<"Tuxumlar sonini kiriting:= "; cin>>n;
14.     stack<int> Stak[100]; // int tipida stak yaratish
15.     stack<int> Stak2[100];
16.     set<int> M; // int tipida set konteyneri
17.     for (int j = 0; j < n; j++) {
```

int a; a=rand()%n+n;;

```

18.     Stak[j].push(a); Stak2[j].push(a);
19.     M.insert(a);} cout<<endl<<endl;
20.     int w=0, sum=0;
21.     while (!Stak2[w].empty()){ int r=0;
22.     while (!Stak2[r].empty()){
23.         if(Stak2[w].top() == Stak2[r].top() && w!=r){
24.             sum+=1; Stak2[r].pop();
25.         } else r++; } w++; } int k=0;
26.     cout<<" Joriy qiymatlar"<<endl;
27.     while (!Stak[k].empty()){
28.         cout<< Stak[k].top()<<" "; k++; }
29.     cout<< endl<<" Bir xil qiymatli bo'lganlarini olib
      tashlanganlari "<<endl;
30.     for (auto it = M.begin(); it!=M.end(); it++){
31.         cout<<*it<<" "; } cout<<endl<<endl;
32.     cout<<"bir xil hajimli tuxumlar soni ="<<sum<<endl;
33.     getchar();
34. }
```

**Dastur natijasi:**

Tuxumlar sonini kiriting:= 16

Joriy qiymatlar

24 18 16 18 24 20 25 26 24 28 23 20 30 29 27 29

Bir xil qiymatli bo'lganlarini olib tashlanganlari

16 18 20 23 24 25 26 27 28 29 30

bir xil hajimli tuxumlar soni = 2

### **Laboratoriya mashg'ulotini bajarish bo'yicha variantlar**

Quyida berilgan vazifalarda kiruvchi qiymatlar matinli fayldan o'zlashtirilishi kerak.

#### **5- jadval**

1	Savatga har xil rangli (bir xillari ham bor) tuxumlar solingan. Ushbu tuxumlardan bir xil rangli tuxumlar sonini aniqlovchi va ulardan bittasini qoldirish va qolganlarini o'chirish dasturini tuzing.
---	--

2	Go'sht olish navbatda N ta talaba turibdi. Lekin ayrim ayyor talabalar navbatga 2 va undan ko'proq o'z nomini yozdirib qo'ygan. Ushbu navbatga 1 tadan ko'p yozilgan talabalarni va ularning sonini aniqlovchi dastur tuzing.
3	Go'sht olish uchun navbatda N ta talaba turibdi. Lekin ayrimlarning familiyasi bir xil. Shundan foydalanib talabalar navbatga 2 va undan ko'proq o'z nomini yozdirib qo'ygan. Ushbu navbatga familiyasi bir xil bo'lganlarni, ularning sonini aniqlovchi va ushbu bir xil familiyalilarga go'shtni teng taqsimlovchi dastur tuzing.
4	Navbatda yuvilish uchun N ta tarelka turibdi. Ichida yuvilganlari ham bor. Har bir tarelkaga 1 minutdan vaqt ketmoqda. Lekin tarelka yuvuvchining vaqtini kam. U tarelkalarni N/2 vaqt birligida yuvib tugatmoqchi. Tarelka yuvuvchiga yordam beradigan dastur tuzing.
5	To'yda N ta qo'shnillardan M tadan kosalar olib chiqilgan. To'ydan keyin hammasi bitta yashikda solingan va ular raqamlangan. Har bir qo'shnidan nechtadan (M=?) kosa chiqqanini va ularni alohida ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
6	To'yda N ta qo'shnillardan M tadan kosalar olib chiqilgan. To'ydan keyin hammasi bitta yashikda solingan va ular raqamlangan. Har bir qo'shnining nechtadan (M-K?) kosa singanligini aniqlovchi va ularni alohida ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
7	Haydovchi yo'lovchini o'z manziliga yetkazib olib borishi kerak. Lekin yo'l triband. Sitaforning Yashil rangi yongunicha 1 dan N sekund o'tmoqda. N gacha bo'lган sekundda qizil mashinalar ketma – ket kelishsa sitaforning qizil rangi yonmasdan yana Yashil rang 1 dan N gacha yonib turaverar ekan. Yo'lning boshlanishiga shuning uchun ham bir xil rangli mashinalar ketma ket ket kelsin deb yozib qo'yilgan ekan. Mashinalar ranglarini o'zgartirish imkoniyati mavjudligidan foydalanib, yo'lovchini qisqa vaqt ichida manziliga yetkazuvchi dastur tuzing.
8	Yashikda N ta xil rangli M ta koptoklar bor. Koptoklar raqamlangan. N ta xil koptoklarni ranglari va raqamlari bo'yich K ta yashiklarga saralab taxlaydigan dastur tuzing.
9	9 etajli, 4 ta padezdan iborat binoning M- qavatidan pastida ( $1 < M \leq 9$ ) 1 ta xonodondan suv toshmoqda. Agar suvsoz hamma xonodonga kirib chiqsa suv o'zidan pastki hamma etajga tarqalib ketadi. xonodonni qisqa vaqt ichida topuvchi dastur tuzing.
10	Kitob javonda kitoblar betartib turibdi. Har bir kitob foydalanylarda unga 1 raqam qo'shib boriladi. N ta kitob M marta o'qilgandan keyin eng ko'p va eng kam o'qilgan kitoblarni va umuman o'qilmagan kitoblarni saralab beruvchi dastur tuzing.
11	Yashikda qizil, ko'k va qora rangli N ta ruchka bor. Har bir ruhkadan K marta foydalanylgan. Qizil, ko'k va qora rangli ruchkalarni eng ko'p va eng kam foydalanylganlarini topuvchi dastur tuzing.

12	C++ fanidan mustaqil ishni topshirishning ohirgi kunida N ta talaba navbatda turibdi. O‘qituvchi joriy talabadan oldingi ikkita talabaga bergen savolini qo‘sib, kelgan talabaga bergenmoqda. M ta talabadan keyin o‘qituvchi nechta savol bergenligini aniqlovchi dastur tuzing.
13	Osh yeyish uchun N ta talaba dasturxonga o‘tirdi. Talabalarnin yoshi har xil (teng yoshlilari ham bor). Bir kg osh K qoshiq oshga teng. O‘zbeklarda ovqatlanish avval kattalardan boshlanadi. Shuning uchun kata yoshdagi talabalar yeyishni boshlaydi. Har bir talaba D ta qoshikdan osh yeydi. Lekin R yoshdagi M- talabaga osh yetmay qolishi mumkin. M- talabaga osh yatish yoki yetmasligini aniqlovchi dastur tuzing.
14	Qizil, ko‘k va yashil rangli tuqli ketma-ket tarqatilmoxda. Uni olish uchun N ta talaba navbatda turibdi. Lekin navbati kelgan talaba tuqli rangini tanlash imkinoyati yoq. Qaysi rangdagi tuqli ketma-ketligi to‘g‘ri kelsa shuni olib ketyapti. M- talaba ko‘k tuqli olish uchun joyini nechta marta boshqa talaba bilan almashtirish kerakligini aniqlovchi dastur tuzing.
15	N ta talaba stipendiya olish uchun navbatda turibdi. Har bir talabaga K minut vaqt sarflanmoqda. Kassa M vaqtda yopilishi shart. D vaqtda L- talaba stipendiya olishiga vaqt yetish yoki yetmasligini aniqlovchi dastru tuzing.
16	Kassadan M ta bilet sotilgan. Lekin kino teatrda kino ko‘rish uchun bilet bilan navbatda N ta odam turibdi ( $N < M$ ). K- qatorda nechta joy borligini aniqlovchi dastru tuzing. Biletlar hammasi sotilgan yoki sotilmagan bo‘lishi ham mumkin.
17	Futbolchilar o‘zлari tanlagan raqamlari bilan ketma-ket kamayish tartibida safda turibdi. Lekin ularning yoshlari bir biridan farq qiladi (tenglari ham bor). M- futbolist yosh bo‘yicha saftda tursa, safning nechinchi o‘rnida turishini, yoki raqamlari bo‘yicha safta tursa, safning nechinchi o‘rnini band qilishini aniqlovchi dastur tuzing.
18	Imtixon uchun o‘qituvchi N ta talabaga bilet tayyorladi. Lekin imtixon paytida bilet tarqatish uchun vaqt kamligi uchun biletlarni aralashtirib tarqatdi. Aniqrog‘i jurnalda 1- raqamli talabaga 1- variant tushishi kerak edi. Shunda o‘qituvchi jurnalda qaysi talaba imtixonga kelmaganligini aniqlab olardi. Qaysi talaba imtixonga kelmaganligini aniqlovchi dastur tuzing.
19	Kredit tizimida darsga talabalar har xil guruxlardan kelganligi uchun bir birlarini yaxshi tanishmaydi. Shuning uchun o‘zining o‘rniga boshqa fanni yaxshi biladigan or‘tog‘ini kirtib yuboradi. Imtixonlar kompyuterda o‘tkaziladi. Savollarni ochish uchun FIO kiritilgandan keyin, talabaning barmog‘ izlari tekshiriladi. Agar mos kelsa savollar ochiladi. Aks holda ochilmaydi. Imtixonga o‘rtog‘ini uchun kirga begona talabalarni aniqlovchi dastur tuzing.
20	Bitta guruhdagi talabalar qilgan xizmatlari uchun guruh rahbari tomonidan taqdirlanmoqda. Avval eng ko‘p xizmat qilganlarni keyin esa qolganlarni taqdirlashga yordamlashuvchi dastur tuzing.

## **2.3.2. queue va priority\_queue sinflaridan foydalanib, amaliy dasturlar yaratish**

**Ishning maqsadi:** C++ dasturlash tilida **queue** va **priority\_queue** sinflari va uning metodlaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallish.

**Masalaning qo‘yilishi:**

**queue** va **priority\_queue** asosida yaratilgan to‘plam elementlarini **push()**, **top()**, **front()**, **back()** va **empty()** iteratorlar yordamida qayta ishlash.

**Masala:**

Imtixon nizomida formasiz kelgan talabalarни imtixonga chetlatish bandi mavjud. Lekin ayrim talabalar ush qoidaga amal qilamydilar. O‘qituvchi eshik oldidida bittadan talaba formasini tekshirib, xonaga kiritmoqda. Guruhda N ta talaba mavjud. Imtixondan keyin imtixonga umuman kelmagan talabalar “men imtixonga kelgan edim lekin siz kiritadingiz” degan vaj bilan o‘qituvchi ustidan shikoyat qilmasligi uchun nechta talaba imtixonga keldi, nechtasi formasiz keldi va nechtasi umuman kelmaganligini aniqlovchi dastru tuzing.

**Masalani yechish g‘oyasi:**

**queue** va **priority\_queue** konteynerlari to‘plami yaratiladi. **queue** va **priority\_queue** ning **push()** iteratoridan foydalanib, **queue** va **priority\_queue** to‘plamga qiymatlar o‘zlashtiriladi. Ichma ich sikl jarayonidan foydalanib, bir xil hajmli imtixonga formasiz kelgan talabalar soni aniqlanadi. Umumiy talabalar sonidan formasiz kelgan talabalar soni ayrib imtixonga umuman kelmagan talabalar soni aniqlanadi.

**Dastur matni:**

1. **#include "stdafx.h"**
2. **#include <stack>**
3. **#include <queue>**
4. **#include<iostream>**
5. **#include<string>**
6. **#include<stdlib.h>**
7. **#include<time.h>**

```

8. using namespace System;
9. using namespace std;
10. class Talaba{
11. int yosh; std::string ism; std::string fam;
12. float step; bool imtixon;
13. public:
14. bool get_imtixon(){return imtixon;}
15. void set(int Y, std::string I, std::string F, float S,
    bool Im){
16. yosh = Y; ism = I; fam = F; step = S; imtixon = Im;}
17. void get(){
18. cout<<"Ismi: "<<ism<<endl;
19. cout<<"Familiyasi: "<<fam<<endl;
20. cout<<"Yoshi: "<<yosh<<endl;
21. cout<<"Stependiyasi: "<<step<<endl;
22. cout<<"Formaning mavjudligi: "<<imtixon<<endl; } };
23. int main(){
24. int n; cout<<"Talabalar sonini kriting:= ";
25. cin>>n; cin.ignore();
26. queue<Talaba> Navbat[100];
27. Talaba t[100];
28. string I,F; int Y; float S; bool Im=false;
29. for (int i = 0; i < n; i++){
30. cout<<i+1<<" - talaba haqida kriting"<<endl;
31. cout<<"Ism: "; cin>>I;
32. cout<<"Fam: "; cin>>F; cin.ignore();
33. cout<<"Yosh: "; cin>>Y;
34. cout<<"Step: "; cin>>S; cin.ignore();
35. cout<<"Formaning bor yo'qligi: 0 yo'q, bor 1: ";
36. cin>>Im; t[i].set(Y,I,F,S,Im);
37. Navbat[i].push(t[i]); }
38. cout<<endl<<endl<<"Imtixonga formasiz kelgan
    talabalar"<< endl;
39. int f_soni=0;
40. for (int i = 0; i < n; i++){
41. if(t[i].get_imtixon() == 0){
42. cout<<endl<<f_soni+1<<" - talaba haqidagi
    ma'lumotlar"<<endl; f_soni++;
43. Navbat[i].front().get();} }
44. cout<<"Formasiz kelgan talabalar soni:
    "<<f_soni<<endl<<endl;

```

```

45. cout<<endl<<endl<<"Imtixonga formada kelgan
talabalar"<< endl; f_soni=0;
46. for (int i = 0; i < n; i++){
47. if(t[i].get_imtixon() == 1){
48. cout<<endl<<f_soni+1<<" - talaba haqidagi
ma'lumotlar"<<endl;
49. f_soni++; Navbat[i].front().get();} }
50. cout<<"Formada kelgan talabalar soni:
"<<f_soni<<endl<<endl;
51. cout<<endl<<endl<<"Imtixonga jami kelgan talabalar
ro'yhati"<< endl;
52. for (int i = 0; i < n; i++){
53. cout<<endl<<i+1<<" - talaba haqidagi
ma'lumotlar"<<endl;
54. Navbat[i].front().get();}
55. cout<<"Guruhdagi jami talabalar soni:
"<<n<<endl<<endl; getchar(); }

```

### Dastur natijasi:

#### **Talabalar sonini kiriting:= 3**

1 - talaba haqida kiriting

Ism: Oybek

Fam: Mallayev

Yosh: 28

Step: 500000

Formaning bor yo'qligi: 0 yo'q, bor

1: 1

2 - talaba haqida kiriting

Ism: Akbar

Fam: Sattarov

Yosh: 18

Step: 750000

Formaning bor yo'qligi: 0 yo'q, bor

1: 0

3 - talaba haqida kiriting

Ism: Odil

Fam: Ishniyazov

Yosh: 20

Step: 560000

Formaning bor yo'qligi: 0 yo'q, bor

1: 1

#### **Imtixonga formasiz kelgan** **talabalar**

1 - talaba haqidagi ma'lumotlar

Ismi: Akbar

Familiyasi: Sattarov

Yoshi: 18

Stependiyasi: 750000

Formaning mavjudligi: 0

**Formasiz kelgan talabalar soni: 1**

#### **Imtixonga formada kelgan** **talabalar**

1 - talaba haqidagi ma'lumotlar

Ismi: Oybek

Familiyasi: Mallayev

Yoshi: 28

Stependiyasi: 500000

Formaning mavjudligi: 1

2 - talaba haqidagi ma'lumotlar

Ismi: Odil

Familiyasi: Ishniyazov  
Yoshi: 20  
Stependiyasi: 560000  
Formaning mavjudligi: 1  
**Formada kelgan talabalar soni: 2**

### **Imtixonga jami kelgan talabalar ro'yhati**

1 - talaba haqidagi ma'lumotlar  
Ismi: Oybek  
Familiyasi: Mallayev  
Yoshi: 28  
Stependiyasi: 500000  
Formaning mavjudligi: 1

2 - talaba haqidagi ma'lumotlar  
Ismi: Akbar  
Familiyasi: Sattarov  
Yoshi: 18  
Stependiyasi: 750000  
Formaning mavjudligi: 0

3 - talaba haqidagi ma'lumotlar  
Ismi: Odil  
Familiyasi: Ishniyazov  
Yoshi: 20  
Stependiyasi: 560000  
Formaning mavjudligi: 1  
**Guruhdagi jami talabalar soni: 3**

## **2.4. Iteratorlar va ularning qo'llanilishi. Xotirani taqsimlovchilar va ularga qo'yilgan talablar**

### **2.4.1. Standart algoritmlar va iteratorlardan foydalanib, amaliy dasturlar yaratish**

**Ishning maqsadi:** C++ dasturlash tilida **Standart algoritmlar va iteratorlar** sinflari va uning qayta yuklangan turlaridan foydalanish ko'nikmalarini egallsh.

#### **Masalaning qo'yilishi:**

**Standart algoritmlar va iteratorlar** asosida yaratilgan to'plam elementlarini **copy(from, from\_end, to),**  
**copy\_if(from, from\_end, to, pred),**  
**copy\_n(from, count, to),**  
**copy\_backward(from, from\_end, to\_end),**  
**move(from, from\_end, to),**  
**move\_backward(from, from\_end, to\_end),**  
**swap\_ranges(a, a\_end, b),**

**fill(to, to\_end, value), fill\_n(to, n, value),**  
**generate(to, to\_end, gen),**  
**generate(v.begin(), v.end(), rand),**  
**generate\_n(to, n, gen), reverse(begin, end),**  
**reverse\_copy(from, from\_end, to),**  
**find(begin, end, value),**  
**mismatch(a, a\_end, b, b\_end, eq),**  
**max\_element(begin, end, comp),**  
**min\_element(begin, end, comp),**  
**for\_each(begin, end, fun),**  
**replace(begin, end, old\_val,**  
**new\_val), remove(begin, end, value),**  
**remove\_if(begin, end, pred),**  
**sort(begin, end, comp),**  
iteratorlar yordamida qayta ishlash.

### **Masala:**

Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va yoshi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib yoshi bo'yicha saralovchi dastru tuzing.

### **Masalani yechish g'oyasi:**

Talaba haqida har xil turdag'i ma'lumotlarni boshqarish uchun "**Talaba**" nomli struktura yaratiladi. **istream\_iterator** iteratoridan foydalanib, matnli fayldan ma'lumotlar o'zlashtiriladi va **ostream\_iterator** iteratoridan foydalanib, ma'lumotlarni matnli faylga yoki natijalar oynasiga chiqarish mumkin. Yoshi bo'yicha saralash uchun **sort()**, ma'lumotlarni **vector** ga joylashtirish uchun **copy()**, ixtiyoriy yoshdan ixtiyoriy yoshgacha ma'lumotlarni chiqarish uchun **copy\_if()** algoritmlaridan foydalaniladi. "**Talaba**" sun'iy tur bo'lganligi uchun kiritish va chiqarish oqimlari(>>, <<) qayta yuklanadi.

### **Dastur matni:**

```

1. #include "stdafx.h"
2. #include <algorithm>
3. #include <vector>
4. #include <set>
5. #include <queue>
6. #include<iostream>
7. #include<string>
8. #include<stdlib.h>
9. #include<time.h>
10. #include<fstream>
11. using namespace System;
12. using namespace std;
13. struct Talaba{ // Talaba nomli struktura
14.     std::string firstname, secondname;
15.     size_t age;
16. };
17. // "<" amallarni qayta yuklash
18. bool comparator(const Talaba& p1, const Talaba& p2){
19.     return p1.age < p2.age; }
20. std::ostream& operator << (std::ostream& out, const
    Talaba& p){
21.     out << p.firstname << " " << p.secondname << " " <<
        p.age;
22.     return out;
23. }
24. // ">>" amallarni qayta yuklash
25. std::istream& operator>>(std::istream& in, Talaba& p){
26.     in >> p.firstname >> p.secondname >> p.age;
27.     return in; }
28. // standart algoritmlarda parameter uchun qo'llashga
29. struct predicate{
30.     size_t begin, end;
31.     predicate(int p1, int p2): begin(p1), end(p2) {}
32.     bool operator ()(const Talaba &p){
33.         return (p.age > begin) && (p.age < end); }
34. };
35. // Matnli faylga bo'g'anish
36. void File_out_in(){
37.     std::ifstream fin("input.txt");
38.     std::ofstream fout("output.txt");
39.     if(fin==NULL){cout<<"fayl not found"; return;}
40.     std::vector<Talaba> v; // Talaba tipida v konteyner

```

```

41. // copy algoritmidan foydalanib, fayldan ma'lumot
   o'zlashtirish
42. std::copy(std::istream_iterator<Talaba>(fin),
   std::istream_iterator<Talaba>(), std::inserter(v,
   v.end()));
43. // sart yoqdamida saralash
44. std::sort(v.begin(), v.end(), comparator);
45. // copy algoritmidan foydalanib, faylga ma'lumotlarni
   yozish
46. std::copy_if(v.begin(), v.end(),
   std::ostream_iterator<Talaba>(std::cout, "\n"),
   predicate(20, 25));
47. std::copy(v.begin(), v.end(),
   std::ostream_iterator<Talaba>(fout, "\n"));
48. //std::copy(v.begin(), v.end(),
   std::ostream_iterator<Talaba>(cout, "\n"));
49. }
50. int main(){
51. File_out_in(); getchar(); }

```

Dastur natijasi:

Natijalar oynasi	Input.txt fayli fayl
Salimov Nuriddin 21	Mallayev Oybek 22
Sharipov Komil 21	Salimov Nuriddin 21
Mallayev Oybek 22	Holiqov Abdulla 23
Holiqov Abdulla 23	Abdullayev Jalil 24
Abdullayev Jalil 24	Sharipov Komil 21

Yuqorida keltirilgan algoritmalarining baza birlariga misollar keltiramiz:

#### 2.4.2. reverse\_copy algoritmiga misol:

```

1. #include "stdafx.h"
2. // reverse_copy ga misollar
3. #include <iostream>      // std::cout
4. #include <algorithm>     // std::reverse_copy
5. #include <vector>        // std::vector
6. using namespace std;
7. int main () {
8. int Int_massiv[] ={1,2,3,4,5,6,7,8,9};
9. vector<int> myvector;
10. myvector.resize(9);    // joy ajratish

```

```

11. reverse_copy (Int_massiv, Int_massiv+9,
    myvector.begin()));
12. // tarkibni chop qilish:
13. cout << "myvector tarkibi:";
14. for (vector<int>::iterator it=myvector.begin();
    it!=myvector.end(); ++it)
15. cout << ' ' << *it;
16. cout << '\n';
17. getchar();
18. return 0;
19. }

```

Dastur natijasi: myvector tarkibi: 9 8 7 6 5 4 3 2 1

#### 2.4.3. find(begin, end, value) algoritmiga misol:

```

1. #include "stdafx.h"
2. // find misol
3. #include <iostream>      // std::cout
4. #include <algorithm>     // std::find
5. #include <vector>        // std::vector
6. using namespace std;
7. int main () {
8. int Int_massiv[] = { 10, 20, 30, 40 };
9. int * p;
10. p = find (Int_massiv, Int_massiv+4, 30);
11. if (p != Int_massiv+4)
12. cout<<"Int_massiv da element topilgan: "<<*p<<'\n';
13. else
14. cout<<"Int_massiv da element topilmadi \n";
15. vector<int> myvector (Int_massiv,Int_massiv+4);
16. vector<int>::iterator it;
17. it = find (myvector.begin(), myvector.end(), 30);
18. if (it != myvector.end())
19. cout<<"myvector da element topildi: "<< *it <<'\n';
20. else
21. cout << "myvector da element topilmadi \n";
22. getchar(); return 0;
23. }

```

Dastur natijasi:

Int\_massiv da element topilgan: 30

myvector da element topildi: 30

#### 2.4.4. mismatch(a, a\_end, b, b\_end, eq) algoritmiga misol:

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <iostream>           // std::cout
3. #include <algorithm>         // std::mismatch
4. #include <vector>            // std::vector
5. #include <utility>           // std::pair
6. bool mypredicate (int i, int j) {
7.     return (i==j); }
8. using namespace std;
9. int main () {
10. vector<int> myvector;
11. for (int i=1; i<6; i++) myvector.push_back (i*10);
12. // myvector: 10 20 30 40 50
13. int Int_massiv[] = {10,20,80,320,1024};
14. // Int_massiv: 10 20 80 320 1024
15. pair<vector<int>::iterator,int*> mypair;
16. // standart taqqoslash yordamida:
17. mypair = mismatch (myvector.begin(), myvector.end(),
    Int_massiv);
18. cout << "Birinchi mos kelmaydigan elementlar: " <<
    *mypair.first;
19. cout << " va " << *mypair.second << '\n';
20. ++mypair.first; ++mypair.second;
21. // predikt taqqoslash yordamida:
22. mypair = std::mismatch (mypair.first, myvector.end(),
    mypair.second, mypredicate);
23. cout << "Ikkinci mos kelmaydigan elementlar: " <<
    *mypair.first;
24. cout << " va " << *mypair.second << '\n';
25. getchar(); return 0;
26. }
```

Dastur natijasi:

Birinchi mos kelmaydigan elementlar: 30 va 80

Ikkinci mos kelmaydigan elementlar: 40 va 320

**2.4.5. max\_element(begin, end, comp) va min\_element(begin, end, comp)**  
algoritmiga misol:

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <iostream>      // std::cout
3. #include <algorithm>    // std::min_element,
                           std::max_element
4. bool myfn(int i, int j) { return i<j; }
5. struct myclass {
6.     bool operator() (int i,int j) { return i<j; }
7. } myobj;
8. using namespace std;
9. int main () {
10. int Int_massiv[] = {3,7,2,5,6,4,9};
11. // standart taqqoslash yordamida:
12. cout << "Eng kichik element - " <<
   *min_element(Int_massiv,Int_massiv+7) << '\n';
13. cout << "Eng katta element - " <<
   *max_element(Int_massiv,Int_massiv+7) << '\n';
14. // myfn funktsiyasidan komp sifatida foydalanish:
15. cout << "Eng kichik element " <<
   *min_element(Int_massiv,Int_massiv+7,myfn) << '\n';
16. cout << "Eng katta element " <<
   *max_element(Int_massiv,Int_massiv+7,myfn) << '\n';
17. // obyekt sifatida myobj-dan komp sifatida
   foydalanish:
18. cout << "Eng kichik element " <<
   *min_element(Int_massiv,Int_massiv+7,myobj) << '\n';
19. cout << "Eng katta element " <<
   *max_element(Int_massiv,Int_massiv+7,myobj) << '\n';
20. getchar(); return 0;
21. }
```

**Dastur natijasi:**

Eng kichik element - 2  
Eng katta element - 9  
Eng kichik element 2  
Eng katta element 9  
Eng kichik element 2  
Eng katta element 9

#### 2.4.6. `For_each(begin, end, fun)` algoritmiga misol:

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <iostream>           // std::cout
3. #include <algorithm>         // std::for_each
4. #include <vector>            // std::vector
5. void myfunction (int i) {   // function:
6.     std::cout << ' ' << i;
7. }
8. struct myclass {           // function object type:
9.     void operator() (int i) {std::cout << ' ' << i;}
10. } myobject;
11. using namespace std;
12. int main () {
13.     vector<int> myvector;
14.     myvector.push_back(10);
15.     myvector.push_back(20);
16.     myvector.push_back(30);
17.     cout << "myvector tarkibi:";
18.     for_each (myvector.begin(), myvector.end(),
19.               myfunction);
20.     cout << '\n';
21.     cout << "myvector contains:";
22.     for_each (myvector.begin(), myvector.end(), myobject);
23.     cout << '\n';
24. }
```

Dastur natijasi:

myvector tarkibi: 10 20 30

myvector contains: 10 20 30

#### 2.4.7. `replace(begin, end, old_val, new_val)` algoritmiga misol:

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <iostream>           // std::cout
3. #include <algorithm>         // std::replace
4. #include <vector>            // std::vector
5. using namespace std;
6. int main () {
7.     int Int_massiv[] = { 10, 20, 30, 30, 20, 10, 10, 20 };
8.     vector<int> myvector (Int_massiv, Int_massiv+8);
```

```

9. // 10 20 30 30 20 10 10 20
10. replace (myvector.begin(), myvector.end(), 20, 99);
11. // 10 99 30 30 99 10 10 99
12. cout << "myvector tarkibi:";
13. for (vector<int>::iterator it=myvector.begin();
       it!=myvector.end(); ++it)
14. cout << ' ' << *it;
15. cout << '\n';
16. getchar();
17. return 0;
18.

```

Dastur natijasi: myvector tarkibi: 10 99 30 30 99 10 10 99

#### 2.4.8. remove va remove\_if(begin, end, pred) algorimiga misol:

```

1. #include "stdafx.h"
2. #include <iostream>      // std::cout
3. #include <algorithm>    // std::remove va remove_if
4. bool IsOdd (int i) { return ((i%2)==1); }
5. using namespace std;
6. int main () {
7. int Int_massiv[]={1,2,3,4,5,6,7,8,9};
8. int* pbegin = Int_massiv; // ^
9. int* pend = Int_massiv+sizeof(Int_massiv)/sizeof(int);
10. pend = remove_if (pbegin, pend, IsOdd);
11. cout << " remove_if dan keyin Range trakibi:";
12. for (int* p=pbegin; p!=pend; ++p)
13. cout << ' ' << *p; cout << '\n';
14. int Int_massiv_2[] = {3,2,3,4,3,6,7,3,9};
15. pbegin = Int_massiv_2;
16. int* pend_2 =
    Int_massiv_2+sizeof(Int_massiv_2)/sizeof(int);
17. pend_2 = remove (pbegin, pend_2, 3);
18. cout << " remove dan keyin Range trakibi:";
19. for (int* p=pbegin; p!=pend_2; ++p)
20. cout << ' ' << *p; cout << '\n';}

```

Dastur natijasi:

remove\_if dan keyin Range trakibi: 2 4 6 8

remove dan keyin Range trakibi: 2 4 6 7 9

#### 2.4.9. sort(begin, end, comp) algoritmiga misol:

```
1. #include <iostream>      // std::cout
2. #include <algorithm>     // std::sort
3. #include <vector>         // std::vector
4. bool myfunction (int i,int j) { return (i<j); }
5. struct myclass {
6.     bool operator() (int i,int j) { return (i<j);} }
7. myobject;
8. using namespace std;
9. int main () {
10. int Int_massiv[] = {32,71,12,45,26,80,53,33};
11. vector<int> myvector (Int_massiv, Int_massiv+8);
12. // 32 71 12 45 26 80 53 33
    // standart taqqoslash (operator <) yordamida:
13. sort (myvector.begin(), myvector.begin()+4);
14. // (12 32 45 71)26 80 53 33
15. // funksiyadan foydalananib
16. sort (myvector.begin()+4, myvector.end(), myfunction);
17. // 12 32 45 71(26 33 53 80)
18. // objectdan foydalib
19. sort (myvector.begin(), myvector.end(), myobject);
20. // (12 26 32 33 45 53 71 80)
21. // elementlarni chop qilish:
22. cout << "myvector tarkitibi:";
23. for (vector<int>::iterator it=myvector.begin();
      it!=myvector.end(); ++it)
24. cout << ' ' << *it; cout << '\n'; getchar();}
```

Dastur natijasi:

myvector tarkitibi: 12 26 32 33 45 53 71 80

**Laboratoriya mashg‘ulotini bajarish bo‘yicha variantlar.**

Ushbu jadvaldagi vazifalar standart algoritmlardan foydalilanigan holda bajariladi.

#### 6- jadval

Nº	Masalani berilishi
1.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va yoshi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to‘plamga o‘zlashtirib, ismi bo‘yicha saralovchi dastur tuzing.

2.	Matnli faylda N ta stolning nomi, narxi va hajmi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, narxi bo'yicha saralovchi dastur tuzing.
3.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va bahosi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, 5, 4 va 3 bahoga o'qiydigan talabalar soni aniqlaydigan dastur tuzing.
4.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va yoshi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, yoshi eng katta va eng kichkina talabani aniqlaydigan dastur tuzing.
5.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va yoshi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, Familiyasi A dan boshlanadigan talabalarni aniqlaydigan dastur tuzing.
6.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va yoshi yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, Ismi B dan boshlanadigan talabalarni va Familiyasi C dan boshlanadiganlarni aniqlaydigan dastur tuzing.
7.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va kelgan viloyati yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, talabalari eng kam kelgan viloyatni aniqlaydigan dastur tuzing.
8.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, ota onasi yo'qlarini aniqlaydigan dastur tuzing.
9.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, oilada yo'lg'iz o'g'il bo'lganlarini aniqlaydigan dastur tuzing.
10.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, turmushga chiqqanlarni aniqlaydigan dastur tuzing.
11.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, oilalali-Uylanganlarini aniqlaydigan dastur tuzing.
12.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, TTJ dan yashaydiganlarini aniqlaydigan dastur tuzing.
13.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, kvartirada yashaydiganlarini aniqlaydigan dastur tuzing.
14.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, Dasturlash fanidan Olinpiada chempini bo'lganlarini aniqlaydigan dastur tuzing.
15.	Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to'plamga o'zlashtirib, Stependiant talabalarni aniqlaydigan dastur tuzing.

- |     |   |
|-----|---|
| 16. | Matnli faylda N ta talabaning familiyasi, ismi va oilaviy ahvoli yozilgan. Ushbu ma'lumotlarni to‘plamga o‘zlashtirib, imkoniyati cheklanganlarni aniqlaydigan dastur tuzing. |
|-----|---|

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Konteyner nima va uning maqsadi nimadan iborat?
2. Konteynerda asosan nechta bo‘limlar mavjud?
3. Konteyner strukturasi?
4. Array sinfining nechta metodi bor? Konstruktorlarini yozing.
5. `toString()` metodining konstruktori va misol?
6. Shablon nima va uning maqsadi?
7. Metodlar uchun shablon qayerda va qanday ishlataladi?
8. Konstruktorlar uchun shablon qayerda va qanday ishlataladi?
9. Sinflar uchun shablon qayerda va qanday ishlataladi?
10. `LinkedList` sinfining nechta metodi bor? Konstruktorlarini yozing.
11. Tartiblangan konteynerlarga qanday sinflar kiradi?
12. Tartiblanmagan konteynerlarga qanday sinflar kiradi?
13. Konteyner nimadan tashkil topadi?
14. Konteyner dinamik xotiradan qanday foydalanadi?
15. Konteyner nima yordamida yaratiladi?
16. Standart algoritmlarni maqsadi nima?
17. Standart algoritmlar qanday vazifalarni yechishda qo‘llaniladi?
18. O‘zingizni konteyneringizni yarating.
19. Shaxsiy konteynerning maqasadi va vazilarini aniq belgilang.
20. Shaxsiy konteynerning yaratishga talablar ishlab chiqing.

### **3- LABORATORIYA ISHI**

#### **3. SONLI SINFLAR BILAN ISHLASH**

##### **3.1. Complex sonlar va ular bilan ishlashga doir amaliy dasturlar yaratish**

Complex son deb  $a+bi$  ifodaga aytildi, bu yerda  $a$  va  $b$  haqiqiy sonlar,  $i$  – mavhum birlik bo‘lib, u yoki  $i^2 = -1$  tengliklar bilan aniqlanadi;  $a$  – kompleks sonning haqiqiy qismi,  $b$  – mavhum qismi deyiladi. Faqat mavhum qismining ishorasi bilan farq qiladigan ikki kompleks son:  $a+bi$  va  $a-bi$  o‘zaro qo‘shma deyiladi. Ko‘pincha  $a+bi$  kompleks son bitta  $\alpha$  harfi bilan belgilanadi:  $a=a+bi$ .  $a+bi$  kompleks sonning haqiqiy qismi  $a=Re\alpha$  bilan, mavhum qismining koeffitsientini  $b=Lm\alpha$  bilan belgilaydilar.  $\alpha$  kompleks sonning  $a+bi$  ko‘rinishidagi yozuviga uning algebraik shakli deyiladi.

Agar ikkita  $\alpha_1=a_1+b_1i$  va  $\alpha_2=a_2+b_2i$  kompleks sonda  $a_1=\alpha_2$ ,  $b_1=b_2$  bu ikki son teng deyiladi ( $\alpha_1=\alpha_2$ ). Agar  $\alpha=a+bi$  kompleks sonda  $a=0$ ,  $b=0$  bo‘lsa, bu kompleks son 0 ga ( $\alpha=0$ ) teng bo‘ladi. Agar  $\alpha=a+bi$  kompleks sonda  $b=0$  bo‘lsa, haqiqiy son hosil bo‘ladi; agar  $a=0$  bo‘lsa,  $0+bi=bi$  sof mavhum son deyiladi.

##### **Complex sonlar sinfi quyidagi funksiyalardan tashkil topgan:**

[abs](#), [acos](#), [acosh](#), [arg](#), [asin](#), [asinh](#), [atan](#), [atanh](#), [conj](#), [cos](#), [cosh](#), [exp](#),

[imag](#) - Murakkab sonning noma‘lum tarkibiy qismini ajratib oladi.

[log](#), [log10](#), [norm](#), [polar](#) - Belgilangan modul va argumentga mos keladigan murakkab sonni Cartesian shaklida qaytaradi.

[pow](#)- Murakkab son bo‘lgan bazani boshqa murakkab raqamning kuchiga ko‘tarish orqali olingan murakkab sonni baholaydi.

[proj](#), [real](#)- Murakkab sonning haqiqiy tarkibiy qismini ajratib oladi.

[sin](#), [sinh](#)- Kompleks sonning giperbolik sinusini qaytaradi.

[sqrt](#), [tan](#), [tanh](#) - Returns the hyperbolic tangent of a complex number.

##### **Complex sonlar uchun quyidagi operatorlar qayta yuklangan:**

operator!=	Haqiqiy va xayoliy qismlar uchun turlarning pastki qismiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita yoki murakkab ikkala murakkab sonlar o‘rtasidagi tengsizlik uchun testlar.
operator*	Haqiqiy va xayoliy qismlar uchun turlarning pastki qismiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita murakkab raqamni ko‘paytiradi.
operator+	Haqiqiy va xayoliy qismlar uchun tipning pastki qismiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita murakkab sonni qo‘shadi.
operator-	Haqiqiy va xayoliy qismlar uchun tipning pastki qismiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita murakkab raqamni ayiradi.
operator/	Haqiqiy va xayoliy qismlar uchun turlarning pastki qismiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita murakkab raqamni bo‘ladi.
operator<<	Chiqish oqimiga murakkab raqamni kiritadigan shablon funktsiyasi.
operator==	Haqiqiy va xayoliy qismlar uchun turlarning pastki qismiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkita yoki murakkab ikkala murakkab sonlar o‘rtasidagi tenglik uchun testlar.
operator>>	Kirish oqimidan murakkab qiymatni chiqaradigan shablon funktsiyasi.

### Complex sonlar uchun quyidagi sinflar mavjud:

[complex<double>](#) Aniq ixtisoslashtirilgan sinf shablonlari ikki tomonlama tipdagi buyurtma qilingan juftlikni saqlaydigan ob‘ektni tasvirlaydi, bu erda birinchisi murakkab sonning haqiqiy qismini, ikkinchisi esa xayoliy qismni anglatadi.

[complex<float>](#) Shubhasiz ixtisoslashtirilgan sinf shablonlari buyurtma qilingan juftlikni saqlaydigan ob‘ektni tavsiflaydi, har ikkala turdag'i float ham, birinchisi murakkab sonning haqiqiy qismini, ikkinchisi esa xayoliy qismni anglatadi.

[complex<long double>](#) Aniq ixtisoslashtirilgan shablon shablonni buyurtma qilingan juftlikni saqlaydigan ob‘ektni tavsiflaydi, har ikkala turdag'i uzun juft juftlik, bu erda murakkab raqamning haqiqiy qismi, ikkinchisi xayoliy qism tasvirlangan.

[complex](#) Sinf shablonlari murakkab sonlar tizimini ifodalash va murakkab arifmetik amallarni bajarish uchun ishlatiladigan ob‘ektni tavsiflaydi.

Komplex sonlarning yuqori keltirilgan tarkibiy qismlarini bazi birlariga misollar keltiramiz.

1. **abs()** complex funksiyasiga misol:

**Dastur matni:**

```

1. #include "stdafx.h"
2. #include <complex>
3. #include <iostream>
4. using namespace System;
5. using namespace std;
6. int main( ) {
7.     using namespace std;
8.     double pi = 3.14159265359;
9.     complex <double> c1 ( polar ( 5.0 ) );    // Default
    argument = 0
10.    complex <double> c2 ( polar ( 5.0 , pi / 6 ) );
11.    complex <double> c3 ( polar ( 5.0 , 13 * pi / 6 ) );
12.    cout << "c1 = polar ( 5.0 ) = " << c1 << endl;
13.    cout<< "c2 = polar ( 5.0 , pi / 6 ) = " << c2 << endl;
14.    cout<<"c3 = polar (5.0, 13*pi / 6 ) = " << c3 << endl;
15.    double absc1 = abs ( c1 );
16.    double argc1 = arg ( c1 );
17.    cout << "C1 moduli c1 dan quyidagilar yordamida
    tiklanadi: abs ( c1 ) = "
18. << absc1 << endl;
19.    cout << "C1 argumenti c1 dan quyidagilar yordamida
    tiklanadi:\n arg ( c1 ) = "
20. << argc1 << " radians, qaysiki " << argc1 * 180 / pi
21. << " darajasi." << endl;
22.    double absc2 = abs ( c2 );
23.    double argc2 = arg ( c2 );
24.    cout << "C2 moduli c2 dan s2 yordamida tiklanadi: abs
    ( c2 ) = "
25. << absc2 << endl;
26.    cout << "C2 argumenti c2 dan quyidagilar yordamida
    tiklanadi:\n arg ( c2 ) = "
27. << argc2 << " radianda, qaysiki " << argc2 * 180 / pi
28. << " darajalar." << endl;
29. if ( (arg ( c2 ) <= ( arg ( c3 ) + .00000001) ) ||
30. (arg ( c2 ) >= ( arg ( c3 ) - .00000001) ) )
31. cout << " c2 & c3 komplex sonlar bir xil
    argumentlardan "
32. << "tashkil topgan."<< endl;
33. else
34. cout << " c2 & c3 komplex sonlar bir xil
    argumentlardan "
35. << "tashkil topmagan."<< endl;

```

```
36. getchar();
```

```
37. }
```

**Dastur natijasi:**

c1 = polar ( 5.0 ) = (5,0)

c2 = polar ( 5.0 , pi / 6 ) = (4.33013,2.5)

c3 = polar ( 5.0 , 13 \* pi / 6 ) = (4.33013,2.5)

C1 moduli c1 dan quyidagilar yordamida tiklanadi: abs ( c1 ) = 5

C1 argumenti c1 dan quyidagilar yordamida tiklanadi:

arg ( c1 ) = 0 radians, qaysiki 0 darajasi.

C2 moduli c2 dan s2 yordamida tiklanadi: abs ( c2 ) = 5

C2 argumenti c2 dan quyidagilar yordamida tiklanadi:

arg ( c2 ) = 0.523599 radians, qaysiki 30 darajalar.

c2 & c3 komplex sonlar bir xil argumentlardan tashkil topgan.

2. **comj()** complex funksiyasiga misol:

**Dastur matni:**

```
1. #include "stdafx.h"
2. #include <complex>
3. #include <iostream>
4. int main( ) {
5.     using namespace std;
6.     complex <double> c1 ( 4.0 , 3.0 );
7.     cout << "Kompleks raqam c1 = " << c1 << endl;
8.     double dr1 = real ( c1 );
